

## HADIS ILMINING SULTONI-IMOM BUXORIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI HAQIDA

Rahbarxon Abdusamitova

Farg'ona davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish  
(o'zbek tili) yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19881116>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola orqali Imom Buxoriyning umr yo'li, ilmiy faoliyati va islom ilmlaridagi beqiyos o'rni yoritib beriladi. Unda allomaning bolaligi, ilm izlab qilgan safarlari, hadis ilmni rivojlantirishdagi xizmatlari, asosiysi, uning eng mashhur asari-"Al-Jome as-Sahih"ning yaratilish tarixi, tuzilishi va ishonchliligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Maqolada Imom Buxoriyning ilmiy merosi, uning bugungi kundagi ahamiyati va yosh avlod tarbiyasidagi o'rni alohida ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar.** Imom Buxoriy, Hadis ilmi, Al-Jome as-Sahih, Sahih hadis, Ilmiy meros, Ilmiy safarlar, Islom ilmlari, hadis tahlili, odob-axloq, ota-ona haqqi, silai rahm.

**Annotation.** This article will shed light on the life path, scientific activities and incomparable role of Imam Bukhari in Islamic sciences. It will provide information on the scholar's childhood, his travels in search of knowledge, his services in the development of the science of hadith, and most importantly, the history, structure and reliability of his most famous work - "Al-Jame as-Sahih". The article will emphasize the scientific legacy of Imam Bukhari, its importance today and its role in the education of the younger generation.

**Keywords:** Imam Bukhari, Hadith science, Al-Jame as-Sahih, Sahih hadith, Scientific heritage, Scientific journeys, Islamic sciences, hadith analysis, ethics, parental rights, ties of kinship.

Otasi o'z davrining yetuk muhaddislaridan (hadis biluvchi, hadis aytuvchi), asosan, tijorat ishlari bilan shug'ullangan bo'lib, onasi esa diyonatli, oqila, taqvodor ayollardan hisoblangan Muhaddislar imomi-Imom Buxoriy 810-yilning 21-iyulida Buxoroda dunyoga kelgan. Uning to'liq ismi-sharifi Abu Abdulloh ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy bo'lgan. Buxoriy yoshlikdan tirishqoq, ilmga chanqoq va nihoyatda xotirasi kuchli inson bo'lib yetishadi va o'n olti yoshga yetgunga qadar mashoyixlar (keksalar, shayxlar:hikmatli so'zlarni aytib o'tgan ulug' otabobolar)dan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi. [6, 3] U onasi va akasi bilan Makka va Madina shaharlarida bo'lib, u yerlik mashhur ulamolar: Ibrohim ibn al-Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan suhbatda bo'lib, hadislar bo'yicha saboq oladi. Undan tashqari, Buxoriy bir nechta shaharlarga safar qiladi va hadis to'playdi, Hijoz, Makka, Madina, Toif, Basra, Kufa, Bag'dod, Shom, Misr, Xuroson, Balx, Hirot, Marv shular jumlasidan. [3, 39]

Boshqa yurtlardagi safarlar tugagach, alloma o'z ona yurtiga-Buxoroga qaytadi va hadis ilmni ommaga keng targ'ib qilishga kirishadi. Bu yo'lda u ko'plab din, hadis, ilm, odob-axloq, diyonat kabi turli mavzularda o'zining asarlarini yaratadi va quyida ularni nomma-nom ko'rib chiqamiz:

„Kitob al-Favoid“ („Foydali ashyolar haqida kitob“), „Al-Jomi' al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „Xalq af'ol alibod“, („Alloh bandalari ishlarining tabiati“), „Al-Musnad al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „At-Tafsir al-kabiyr“ („Katta tafsir“), „Kitob al-xiba“ („Xayrehson haqida kitob“) va

boshqalar asarlarning ba'zilari bizgacha yetib kelmagan, ba'zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor. [1, 97]

Qolaversa, Buxoriy safarlari davomida, 600mingga yaqin hadis to'plab, ulardan takrorlanadiganlarini 7275tasini ishonchli deb hisoblab, o'zining mashhur to'plami "Al-Jomi as-Sahih"ga kiritgan. Odamlar orasida «Sahihi Buxoriy», «Al-jome' as-sahih" kabi nomlar bilan tanilgan ushbu kitobni Imom Buxoriy «Al-jome' as-sahih al-musnad min hadisi Rasulillahi sollallohu alayhi va sallam va sunanihi va ayyomihi» (Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hadislarini, sunnatlari va muborak hayotlaridan to'plangan sahih musnad) deb nomlagan. To'plamda jami takrorlanmaydigan hadislar soni 4000tani tashkil qiladi. Natijada, sahih (ishonarli) hadislarini to'plab, uni to'plam holiga keltirish an'anasini Imom al-Buxoriy boshlab bergan. Shu bilan birga, buyuk hadisshunosning ko'plab shogirtlari ham yashab ijob qilganlar, jumladan, Imom Muslim, Imom at-Termiziy, Imom Nasoiy, Imom Abu Dovud, Ibn Moja kabilar bobomizning izdoshlari sirasiga kiradi. Asar dunyo yuzini ko'rganiga qariyb 1200yil bo'ldi, lekin u shu vaqtgacha ham islom dini manbalari bo'yicha Qur'ondan keyingi o'rinni egallab kelmoqda. To'plamning ko'plab nusxasi islom olami bo'ylab keng tarqalgan. [2, 71]

Imom al-Buxoriyning odob-axloqqa oid eng mashhur asari "Al-Adab al-Mufrad" (Adab durdonalari) bo'lib, unda 1322 ta hadis va xabarlar 644 bobda jamlangan. Asar ota-ona hurmati, qarindoshlik rishtalari, qo'ni-qo'shnicilik, halollik va mehr-oqibat kabi yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi. [4,15] Uning Sahih al-Buxoriy to'plamida ham axloqiy me'yorlar keng yoritilgan. Mazkur asarlar orqali alloma inson kamolotida odob-axloqning o'rni beqiyos ekanini alohida ta'kidlaydi. Har bir hadis insonni pok niyatli, sabrli, halol va mehribon bo'lishga undaydi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar, jamiyatdagi o'zaro hurmat va insoniylik mezonlari hadislar orqali sodda va ta'sirchan tarzda bayon etilgan. Shu jihatdan qaraganda, Imom Buxoriy merosi nafaqat diniy manba, balki yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda muhim ma'naviy qo'llanma vazifasini ham bajaradi. Uning hadislarida ilgari surilgan axloqiy g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. [5, 13]

Quyida esa ushbu asarlarda keltirilgan hadislar asosida axloqiy qarashlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi:

*Abdulloh ibn Umar (r.a.)dan rivoyat qilindi. U kishi: "Alloh taoloning rozi bo'lishi otaning rozi bo'lishiga va uning g'azabi ham otaning g'azabiga bog'liqdir", dedilar. [7, 23]*

Abdulloh ibn Umar (r.a.)dan rivoyat qilingan ushbu hadisda inson hayotida ota roziligining naqadar muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi. Hadis mazmuniga ko'ra, Alloh taoloning bandadan rozi bo'lishi ko'p jihatdan ota-onaning, xususan otaning roziligiga bog'liqdir. Shu bilan birga, agar ota norozi bo'lsa, bu holat Allohning g'azabiga sabab bo'lishi mumkinligi uqtiriladi. Qisqacha aytganda, bu hadis farzandlarni ota-onaga hurmat, itoat va ehtirom ko'rsatishga undaydi.

*Bahz ibn Hakim (r.a.) otasi va bobosidan rivoyat qildi, bobosi aytdi: "Rasulullohdan: "Ey, Rasulalloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?" – deb so'radim. "Onangga", dedilar. Men shu savolimni uch marotaba qaytarsam ham, Rasululloh: "Onangga", deyaverdilar. To'rtinchi marotaba so'raganimda: "Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga", dedilar. [7, 27]*

Bahz ibn Hakim rivoyat qilgan ushbu hadisda insonning yaxshilik qilishda eng ustuvor bo'lgan kishilar aniq ko'rsatib beriladi. Unda Muhammad (s.a.v.) uch marotaba "onangga" deb javob berishlari orqali onaning o'rni nihoyatda ulug' ekanini ta'kidlaydilar. Faqat to'rtinchi

savoldan keyingina otaga va boshqa yaqin qarindoshlarga yaxshilik qilish lozimligi aytiladi. Qisqacha mazmuni shuki, bu hadisda onaga e'tibor, mehr va xizmat ko'rsatish birinchi darajali burch ekani uqtiriladi.

*Abdulloh ibn Amr (r.a.) aytdilar: Rasululloh (s.a.v.) bitta barmoqlarini egib: "Rahm so'zi Alloh taoloning Rahmon nomidan (shu barmogamdek) unib chiqqan bir shoxchadir. Uni birov uzmasa, Alloh taolo uzmaydi va kim uzib qo'ysa, Alloh ham uni uzib tashlaydi. Qiyomat kuni rahmga Alloh taolo fasohatli, o'tkir va ochiq so'zlaydigan til beradi", dedilar.[7,85]*

Abdulloh ibn Amr ibn al-Os (r.a.) rivoyat qilgan ushbu hadisda qarindoshlik rishtalari — ya'ni “rahm” tushunchasining naqadar muqaddas ekani ta'kidlanadi. Muhammad (s.a.v.) “rahm” so'zini Allohning “Rahmon” nomi bilan bog'lab, uni uzilmas rishta sifatida tasvirlaydilar. Qisqacha mazmuni shuki, qarindoshlik aloqalarini saqlash — Allohning marhamatiga erishishning muhim omilidir.

*Abdulloh ibn Umar (r.a.) aytdilar: "Kim Alloh taolodan qo'rqsa va qavm- qarindoshlariga yondashsa, ajali ta'xir qilinadi, moli ko'payadi va ahli ayollari uni yaxshi ko'radigan bo'ladi".[7,56]*

Abdulloh ibn Umar (r.a.) rivoyat qilgan ushbu hadisda taqvo va qarindoshlik aloqalarini mustahkamlashning hayotdagi ijobiy natijalari bayon etiladi. Hadisga ko'ra, Allohdan qo'rqib yashagan va qavm-qarindoshlari bilan yaxshi munosabatda bo'lgan insonning umri barakali bo'ladi, rizqi kengayadi hamda oila a'zolari tomonidan hurmat va muhabbatga sazovor bo'ladi. Qisqacha mazmuni shuki, taqvo va silai rahm inson hayotiga baraka olib kiradi.

Yuqorida keltirilgan hadislar tahlili shuni ko'rsatadiki, Imom al-Buxoriy merosida odob-axloq masalalari markaziy o'rin egallaydi. Ayniqsa, ota-ona hurmati, ona mehrining ulug'ligi, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash va taqvo bilan yashash inson kamolotining asosiy mezonlari sifatida talqin etiladi. Mazkur hadislar orqali insonning nafaqat diniy, balki ijtimoiy va ma'naviy hayoti ham tartibga solinadi. Ular jamiyatda mehr-oqibat, hurmat va hamjihatlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, bu hikmatli o'gitlar bugungi kunda ham yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Imom Buxoriy merosi mavzusidagi ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent.
2. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Rasmiy nashr va maqolalar. – Samarqand.
3. O'zbekiston musulmonlari idorasi. Hadis ilmi va Imom Buxoriy risolalari. – Toshkent.
4. Hadis ilmi asoslari. – Toshkent: O'quv nashriyoti.
5. Islom tarixi. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Wikipedia. “Imom Buxoriy” maqolasi (onlayn manba).
7. “Al-Adab al-Mufrad” kitobidan.